

O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI PREZIDENTI
ADMINISTRATSIYASI HUZURIDAGI
**TA'LIM SIFATINI TA'MINLASH
MILLIY AGENTLIGI**



TA'LIM DASTURINI
MAXSUS DAVLAT AKKREDITATSIYASIDAN O'TKAZISH BO'YICHA
YAKUNIY HISOBOT



TERMIZ DAVLAT UNIVERSITETI
davlat oliy ta'lim tashkiloti

71010201 – Sport faoliyati: dzyudo
magistratura ta'lim dasturi



**O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI PREZIDENTI
ADMINISTRATSIYASI HUZURIDAGI
TA'LIM SIFATINI TA'MINLASH MILLIY AGENTLIGI**

71010201 – Sport faoliyati: dzyudo

**TA'LIM DASTURINI MAXSUS DAVLAT AKKREDITATSIYASIDAN
O'TKAZISH BO'YICHA YAKUNIY HISOBOT**

TERMIZ DAVLAT UNIVERSITETI

(Ekspert komissiyasi xulosasi asosida)

1. UMUMIY MA'LUMOTLAR

Ariza raqami	MAO260035
Xulosa raqami	1013-son
Xulosa sanasi	2026-yil 11-iyun
Ta'lim tashkilotining to'liq nomi	"Termiz davlat universiteti" davlat muassasasi
Tashkilot manzili, litsenziya / identifikatsiya ma'lumotlari	Surxondaryo viloyati, Termiz shahri, Alisher Navoiy ko'chasi, 42-uy; guvohnoma № 889, 19.10.2006-yil
Baholangan ta'lim dasturi nomi	Sport faoliyati: dzyudo
Yo'nalish / mutaxassislik kodi	71010201
Akkreditatsiya usuli	masofaviy
Ekspertlar guruhi raisi (F.I.Sh., lavozimi)	Chorshamiyev Nuriddin Abdalimovich – O'zbekiston davlat jismoniy tarbiya va sport universiteti; ekspert komissiyasi raisi

2. HUQUQIY ASOSLAR

Xulosa tayyorlanishiga asos bo'lgan normativ-huquqiy hujjat:

O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining "O'rta maxsus, kasbiy, oliy va oliy ta'limdan keyingi ta'lim, shuningdek, kadrlarni qayta tayyorlash va ularning malakasini oshirish tashkilotlarini kompleks hamda maxsus davlat akkreditatsiyasidan o'tkazish tizimini joriy etish to'g'risida" 2025-yil 6-avgustdagi 498-son qarori 1-ilovasi bilan tasdiqlangan "O'rta maxsus, kasbiy, oliy va oliy ta'limdan keyingi ta'lim, shuningdek, kadrlarni qayta tayyorlash va ularning malakasini oshirish tashkilotlarini kompleks hamda maxsus davlat akkreditatsiyasidan o'tkazish tartibi to'g'risida"gi Nizom.

Maxsus davlat akkreditatsiyasi:

O'rta maxsus, kasbiy, oliy ta'limni va oliy ta'limdan keyingi ta'limni, shuningdek, kadrlarni qayta tayyorlash va ularning malakasini oshirishni amalga oshiruvchi davlat va nodavlat ta'lim tashkilotlarida ta'lim dasturlari bo'yicha o'quv jarayoni boshlanishidan oldin amalga oshiriladigan jarayon.

3. TA'LIM DASTURINING UMUMIY TAVSIFI

1. Ta'lim tashkilotining litsenziya/guvohnomasi: <i>License/Certificate of Educational Institution:</i>	№ 889 / 19.10.2006
2. Ta'lim tashkilotining turi: <i>Type of Educational Institution:</i>	Davlat oliy ta'lim tashkiloti
3. Ta'lim dasturi kodi va nomi: <i>Code and Name of Study Programme:</i>	71010201 – Sport faoliyati: dzyudo
4. Ta'lim dasturining ingliz tilida nomlanishi: <i>Name of Study Programme in English:</i>	71010201 – Sports Activity: Judo
5. Ta'lim dasturining rus tilida nomlanishi: <i>Name of Study Programme in Russian:</i>	71010201 – Спортивная деятельность: дзюдо
6. Hamkorlikda amalga oshirilishi: <i>Offered in Cooperation with:</i>	—
7. Ta'lim tili: <i>Medium of Instruction:</i>	o'zbek
8. Ta'lim shakli: <i>Mode of Study:</i>	kunduzgi
9. Ta'lim dasturi hajmi: <i>Study Programme Credits:</i>	120 kredit
10. Ta'lim dasturi davomiyligi: <i>Duration of Study Programme:</i>	2 yil
11. Milliy malaka ramkasidagi darajasi: <i>Level in National Qualifications Framework:</i>	7-daraja
12. Kvalifikatsiya(lar) nomi: <i>Qualification Title:</i>	Murabbiy, pedagog-tadqiqotchi
13. Qo'shimcha beriladigan kvalifikatsiyalar: <i>Additional Qualifications Awarded:</i>	—
14. Ta'lim dasturi yakunida beriladigan hujjat turi: <i>Type of Document Issued Upon Completion:</i>	Davlat namunasidagi diplom
15. Ta'lim oluvchilarning me'yoriy miqdori (to'liq davr): <i>Maximum Number of Students (full period):</i>	4 nafar
16. Ta'lim dasturini o'qitish manzili: <i>Address Where the Study Programme is Delivered:</i>	Surxondaryo viloyati, Termiz shahri, Alisher Navoiy ko'chasi, 42-uy

4. BAHOLASH YO'NALISHLARI VA MEZONLAR BO'YICHA NATIJALAR

Har bir yo'nalish bo'yicha baho (muvofig / muvofig emas) va har bir mezon bo'yicha baho (muvofig / qisman muvofig / muvofig emas) deb baholanadi.

№	Baholash yo'nalish (bob) va mezonlari	Muvofiqligi
1.	Tashkiliy-boshqaruv va sifatni ta'minlash	Muvofiq
1.1.	<i>ta'lim dasturini amalga oshirish bo'yicha tarkibiy tuzilma va uning samarali ishlash mexanizmlarining mavjudligi;*</i>	Muvofiq
1.2.	<i>ta'lim dasturini rivojlantirish va moliyaviy barqarorligini ta'minlash bo'yicha 5 yillik istiqbolli rejaning mavjudligi;</i>	Muvofiq
1.3.	<i>ta'lim dasturi doirasida sifatni ichki ta'minlash mexanizmining mavjudligi hamda bu jarayonlarda manfaatdor tomonlarning ishtiroki ta'minlangani;</i>	Muvofiq
1.4.	<i>mehnat bozori va ta'lim ehtiyojlari hamda ilmiy-tadqiqotning so'nggi tendensiyalarini aniqlash bo'yicha monitoring tizimining mavjudligi;</i>	Muvofiq
2.	Ta'lim dasturlari	Muvofiq
2.1.	<i>manfaatdor tomonlar ishtirokida ta'lim dasturining belgilangan tartibda ishlab chiqilgani. Bunda ta'lim dasturining maqsadi, natijalarining belgilangani, mehnat bozori, davlat ta'lim standarti va milliy malakalar ramkasi talablariga muvofiqligi;*</i>	Muvofiq
2.2.	<i>ta'lim dasturining milliy ta'lim tizimidagi ustuvor yo'nalishlar va xalqaro andozalar asosida ishlab chiqilgani;</i>	Muvofiq
2.3.	<i>ta'lim dasturining davomiyligi, fanlarning uzviyligi va uzluksizligi ta'minlangani;</i>	Muvofiq
3.	O'quv jarayonini tashkil etish va o'quv natijalarini baholash	Muvofiq
3.1.	<i>ishchi o'quv reja va dasturlarining belgilangan talablarga muvofiq ishlab chiqilgani;*</i>	Muvofiq
3.2.	<i>o'quv jarayonining ta'lim dasturida belgilangan o'quv natijalariga erishishga yo'naltirilgani;*</i>	Muvofiq
3.3.	<i>o'quv jarayonining doimiy baholab borilishi va takomillashtirishga qaratilgani;</i>	Muvofiq
3.5.	<i>ta'lim dasturi doirasida talabalar bilimining shaffof va xolis baholanishi, baholash jarayonlarining o'quv natijalariga muvofiqligi;</i>	Muvofiq
3.6.	<i>talabalarning baholash natijalari bo'yicha fikr-mulohazalarini olish imkoniyati mavjudligi;</i>	Muvofiq
3.7.	<i>ta'lim dasturida akademik halollik qoidalarining belgilangani va unga zid holatlarning oldini olish bo'yicha samarali tizimning mavjudligi;*</i>	Muvofiq

№	Baholash yo'nalish (bob) va mezonlari	Muvofiqligi
4.	Talabalar faoliyati	Muvofiq
4.1.	<i>ta'lim dasturi bo'yicha qabul talablari aniq belgilangani, o'qishga qabul qilish shaffof tarzda yo'lga qo'yilgani;</i>	Muvofiq
4.2.	<i>qabul parametrlarining ta'lim tashkilotining resurslari va imkoniyatlariga mos kelishi;*</i>	Muvofiq
4.3.	<i>talabalarining o'qishini ko'chirish, kursdan-kursga o'tkazish (qoldirish), o'qishdan chetlashtirish va o'qishini qayta tiklash tartibining belgilangani;*</i>	Muvofiq
4.4.	<i>talabalarni qo'llab-quvvatlash va ularga maslahat berish mexanizmlarining mavjudligi;</i>	Muvofiq
5.	Inson resurslari	Muvofiq
5.1.	<i>ta'lim dasturi uchun belgilangan me'yorlarga muvofiq pedagog kadrlar, shuningdek, boshqaruv, texnik, xizmat ko'rsatuvchi va o'quv-yordamchi xodimlar mavjudligi hamda ularning sifat tarkibi, malakasi va mutaxassisligi belgilangan talablarga mosligi;*</i>	Muvofiq
5.3.	<i>yangi ta'lim dasturlari bo'yicha o'quv rejadagi fanlarga mos (tegishli) kasbiy, pedagogik va ilmiy kompetensiyalarga ega pedagog kadrlar bilan ta'minlash bo'yicha aniq rejaning mavjudligi;*</i>	Muvofiq
5.4.	<i>kadrlarning kasbiy rivojlanishi va malaka oshirishiga sharoit yaratilgani, moddiy va ma'naviy rag'batlantirish tizimining mavjudligi;</i>	Muvofiq
6.	Moddiy-texnik ta'minot	Muvofiq
6.1.	<i>ta'lim dasturini amalga oshirish uchun amaliy, laboratoriya mashg'ulotlari va kurs ishi (loyiha)ni bajarish uchun zarur asbob-uskunalar, jihozlar, inventarlar, texnikalar, xomashyo materiallari va boshqalarning mavjudligi hamda metodik qo'llanma (ko'rsatma)lar bilan ta'minlangani;*</i>	Muvofiq
6.2.	<i>fanlar kesimida o'quv va o'quv-metodik adabiyotlar, elektron ta'lim resurslari bilan belgilangan talablarga muvofiq ta'minlangani;*</i>	Muvofiq
6.3.	<i>o'quv va laboratoriya xonalari hamda ustaxona (poligon)larning talabalar sonidan kelib chiqib, ta'lim dasturlariga mos jihozlar va axborot-kommunikatsiya vositalari bilan ta'minlangani hamda xavfsizlik qoidalariga rioya qilingani;*</i>	Muvofiq
6.4.	<i>inklyuziv ta'lim olish uchun binolar va jihozlarning moslashtirilgani, maxsus o'quv materiallarining mavjudligi, axborot-kommunikatsiya vositalaridan foydalanish imkoniyati yaratilgani;</i>	Muvofiq
6.5.	<i>axborot-resurs markazining (kutubxonaning) ta'lim dasturlariga mos o'quv adabiyotlari, kompyuterlar bilan ta'minlangani, o'quv zali va elektron kutubxonaning mavjudligi;*</i>	Muvofiq

№	Baholash yo'nalish (bob) va mezonlari	Muvofiqligi
6.6.	<i>raqamli ta'lim muhiti yaratilgani (LMS, wi-fi zonalari, onlayn kurslar, vebinarlar va masofaviy ta'lim imkoniyatlari);</i>	Muvofiq
6.7.	<i>ta'lim dasturi xususiyatidan kelib chiqib, maxsus xona yoki bino va inshootlarining (sport zali, stadion, musiqa xonasi va boshqalarning) mavjudligi.</i>	Muvofiq

5. BAHOLASH YO'NALISHLARI (BOB) BO'YICHA XULOSALAR

1-bob. Tashkiliy-boshqaruv va sifatni ta'minlash yo'nalishi (muvofiq). TERDU universitetida ta'lim dasturini samarali amalga oshirish uchun zarur bo'lgan tashkiliy- boshqaruv tizimi shakllantirilgan va uning faoliyati aniq belgilangan vakolat hamda mas'uliyatlar asosida yo'lga qo'yilgan.

2-bob. Ta'lim dasturlari yo'nalishi (muvofiq). Ta'lim dasturi amaldagi me'yoriy-huquqiy hujjatlar talablari asosida manfaatdor tomonlarning faol ishtirokida ishlab chiqilgan bo'lib, uning mazmunini shakllantirishda professor-o'qituvchilar, ish beruvchilar, soha mutaxassislari, talabalar va bitiruvchilarning taklif hamda tavsiyalari inobatga olingan.

3-bob. O'quv jarayonini tashkil etish va o'quv natijalarini baholash yo'nalishi (muvofiq). Ta'lim dasturi doirasidagi ishchi o'quv rejalari va fan dasturlari amaldagi me'yoriy-huquqiy hujjatlar hamda davlat ta'lim standartlari talablariga muvofiq ishlab chiqilgan bo'lib, ularda ta'lim maqsadlari, o'quv natijalari, o'quv mazmuni va baholash mezonlari aniq belgilangan.

4-bob. Talabalar faoliyati yo'nalishi (muvofiq). Ta'lim dasturi bo'yicha talabalarni qabul qilish jarayoni amaldagi me'yoriy-huquqiy hujjatlar asosida tashkil etilgan bo'lib, qabul talablari va tartiblari barcha abituriyentlar uchun ochiq va tushunarli tarzda e'lon qilingan. Qabul ko'rsatkichlari ta'lim tashkilotining moddiy-texnik bazasi, professor-o'qituvchilar salohiyati, auditoriya fondi hamda mavjud resurs va imkoniyatlariga mos ravishda shakllantirilgan.

5-bob. Inson resurslari yo'nalishi (muvofiq). Ta'lim dasturini amalga oshirish uchun zarur bo'lgan pedagog, ilmiy-pedagogik, boshqaruv, texnik, xizmat ko'rsatuvchi hamda o'quv-yordamchi xodimlar bilan ta'minlanganlik darajasi belgilangan me'yoriy talablarga mos keladi. Professor-o'qituvchilar va xodimlarning malakasi,

kasbiy tajribasi hamda mutaxassislik yo'nalishlari ta'lim dasturining maqsad va vazifalarini samarali amalga oshirish imkonini beradi.

6-bob. Moddiy-texnik ta'minot yo'nalishi (muvofig). Ta'lim dasturini sifatli amalga oshirish uchun zarur bo'lgan moddiy-texnik baza va o'quv-uslubiy ta'minot belgilangan talablar darajasida shakllantirilgan.

6. BAHOLASH YO'NALISHLARI (BOB) BO'YICHA ANIQLANGAN KAMCHILIKLAR VA NOMUVOFIQLIKLAR

Jiddiy kamchiliklar (akkreditatsiyaga to'sqinlik qiluvchi):

Ekspert komissiyasi xulosasida akkreditatsiyaga to'sqinlik qiluvchi jiddiy kamchiliklar aniqlanmagan.

Bartaraf etilishi lozim bo'lgan kichik kamchiliklar:

- ✓Baholash jarayonlarining shaffofligi va talabalarining fikr-mulohazalarini inobatga olish tartibini yanada mustahkamlash zarur.
- ✓Ilmiy-tadqiqot va xalqaro hamkorlik imkoniyatlarini kengaytirishga qaratilgan ayrim jihatlarni takomillashtirish maqsadga muvofiq.

7. TA'LIM DASTURINI SIFATLI TASHKIL ETISH BO'YICHA TAVSIYALAR

- ✓Baholash jarayonlari shaffofligini oshirish va talabalar fikr-mulohazalarini tizimli hisobga olishni kuchaytirish tavsiya etiladi.
- ✓Magistrlarning ilmiy-tadqiqot faoliyatini qo'llab-quvvatlash va xalqaro sport-ilmiy hamkorlikni kengaytirish tavsiya etiladi.
- ✓Zamonaviy sport-tadqiqot metodikalari va texnologiyalarini o'quv jarayoniga integratsiya qilish tavsiya etiladi.

8. TA'LIM DASTURI BO'YICHA YAKUNIY XULOSA

Yakuniy xulosa "Termiz davlat universiteti" davlat muassasasining 71010201 – Sport faoliyati: dzyudo magistratura ta'lim dasturi bo'yicha taqdim etilgan hujjatlar hamda asoslovchi materiallar tahlili asosida shakllantirildi. Baholash oltita yo'nalish (bob) va ularga tegishli mezonlar bo'yicha o'tkazildi.

O'tkazilgan tahlil natijasida ta'lim dasturi tashkiliy-boshqaruv va sifatni ta'minlash, ta'lim dasturlari, o'quv jarayonini tashkil etish, talabalar faoliyati, inson resurslari


hamda moddiy-texnik ta'minot yo'nalishlari bo'yicha belgilangan talablarga to'liq javob berishi aniqlandi. Barcha oltita yo'nalish va ularga tegishli mezonlar muvofiq deb baholandi.

Aniqlangan e'tibor qaratilishi lozim bo'lgan jihatlar akkreditatsiyaga to'sqinlik qilmaydi va ular o'quv jarayonini takomillashtirish hamda xalqaro hamkorlikni kengaytirish bo'yicha tavsiyalar asosida bosqichma-bosqich amalga oshirilishi mumkin.

Yuqoridagi barcha dalillarga tayangan holda, 71010201 – Sport faoliyati: dzyudo magistratura ta'lim dasturi maxsus davlat akkreditatsiyasi talablariga **muvofiq deb baholandi**.

9. TA'LIM DASTURI BO'YICHA AKKREDITATSIYA KOMISSIYASI QARORI

Akkreditatsiya komissiyasi qarori sanasi:	2026-yil 16-iyun
Akkreditatsiya komissiyasi bayon soni:	3-son
Yakuniy qaror (akkreditatsiyadan o'tdi/akkreditatsiyadan o'tmadi)	AKKREDITATSIYADAN O'TDI



+998 55 505 30 30



info@nqaee.uz
www.nqaee.uz



@nqaeeuz



@nqaeeuzbot

